



ISSN (E): 2181-4570

CHAQIRIQQACHA HARBIY TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINI HARBIY VATANPARVALIK YO'LIDA TARBIYALASHNI RIVOJLANTIRISH

Anvar Khanimkulov Rahimkulovich

TDPU Harbiy ta'lim fakulteti katta o'qituvchisi

Umarov Asilbek Akbar o'g'li

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Harbiy ta'lim fakulteti 2-kurs talabasi


Anotatsiya: Ushbu maqolada yoshlarimizni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning vatanga bo'lgan muhabbatini oshirish, mafkuraviy tasirlashdan asrash, yoshlarni jasurlik, mardlik, vatanni sevish o'zligini anglash hamda ommaviy madaniyatning yoshlarga bo'lgan salbiy tasirlari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Mardlik, harbiy vatanparvarlik, Pedagogik jarayon, Vatan himoyasi, ommaviy madaniyat.

Hozirgi globallashuv arsiga kelib yoshlarimizni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va ularni vatanga sodiq qilib voyaga yetkazish bizning burchimiz hisoblanadi. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ustuvor shakllarini amalda qo'llash bo'yicha umumiy masalalarni ko'rib chiqamiz. «Yoshlarni harbiyvatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi»da yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning usullari: ishontirish; mashq qildirish va mustaqil ishlash; kuzatish; rag'batlantirish; o'rnak ko'rsatish va shaxsiy namuna deb ko'rsatilgan. Shunga muvofiq ravishda tegishli yo'l-yo'riqlar belgilab berilgan.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ustuvor shakllari to'g'risida konsepsiyaning 13-bandida shunday ko'rsatib o'tilgan: «Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash turli shakllarda, jumladan, ilmiy-amaliy anjumanlar, savol-javob kechalari, kitobxonlik, o'yinlar, mashhur kishilar bilan uchrashuvlar tarzida va boshqa shakllarda tashkil etiladi.

Yoshlarimizni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, vatanga sadoqatlik ruhiyatini oshirishning meyoriy asoslari va moddiy texnik bazasi yaratilib kelinmoqda. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga doir ishlar samaradorligini oshirish va faollashtirish, bu boradagi ta'lim-tarbiya ishlariga






mamlakat fuqarolarini, davlat va nodavlat notijorat tashkilotlarini hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini yanada faol jalb etish va yoshlar ongiga vatanparvarlik, mardlik, jasurlik hamda vatanni sevish tuyg'ularini singdirish dolzarb vazifalardan biriga aylanib kelmoqda. Natijada yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning pedagogik-psixologik imkoniyatlari harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimini takomillashtirish zaruratini asoslaydi. Falsafiy, metodologik, metodik, psixologik va pedagogik yondashuvlarga hamda chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarini harbiy vatanparvarligi ruhida tarbiyalashga doir milliy tajriba, respublikamiz va chet ellik olimlar, shuningdek, guruh va seksiya komandirlarining tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishga doir asoslanganligi; tadqiqot vazifalariga mos keluvchi, o'zaro bir-birini to'ldirib boruvchi tadqiqot metodlarining qo'llanilganligi, tahlil va tadqiqot tavsifining miqdor, shuningdek, sifat jihatidan ta'minlanganligi, tajriba-sinov ishlarining reprezentativligi hamda olingan natijalarning matematik-statistik tahlil metodlari yordamida qayta ishlanganligi bilan belgilanadi. Qolaversa boy hayotiy tajribaga ega bo'lgan harbiy xizmatchi va faxriylar, ilm-fan, madaniyat va sport sohalarida, turli musobaqa va tanlovlarda g'olib bo'lgan shaxslar bilan uchrashuvlar. Bunday uchrashuvlarni tegishli yo'nalishdagi tadbirlar, bayramlar, yirik sanalar va shu kabilar bilan bog'liq ravishda o'tkazish an'anaga aylangan. Bu uchrashuvlarga oldindan puxta va atroflicha tayyorgarlik ko'rish, zarur qulay sharoitlarni hamda tadbir ishtirokchilarini tayyorlash, tadbirni olib borish rejasini, taklif etilgan mehmonlarni kutib olish, boshlab borish, minnatdorchilik bildirish, kuzatib ko'yish tartiblarini belgilash va to'liq amalga oshirish lozim. «Namunali harbiylar oilasi» ko'rik-tanlovini, «Otam, onam va men - sportchilarmiz» musobaqalarini o'tkazib borish ham ushbu maqsadlarga xizmat qiladi.

Vatanparvarlik insonning fuqaro hamda muayyan jamiyat a'zosi sifatidagi eng buyuk burchi bo'lib, oilaga sadoqat, kelajakka ishonch, tarixga hurmat, bugungi kuniga e'tibor, atrofdagi insonlar manfaatlarini hisobga olish, haqni nohaqdan ajrata olish kabi xislatlarni jamlaydi. Istalgan qo'shin, jamiyatda vatanparvarlik tuyg'usi kamolga yetmas ekan, uning ixtiyoriga eng zamonaviy qurol berilganda ham foydasi bo'lmaydi. Shuning uchun ham Vatan himoyasida, avvalo, inson omili yetakchi o'rinda turadi. Respublikamiz prezidenti Sh.Mirziyoyev o'z nutqlaridan birida ma'naviy-ma'rifiy tarbiya o'ta muhim, nozik va hal qiluvchi masala ekanligini ta'kidlab, bugungi yoshlar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya jarayonida ulardagi vatanparvarlik





sifatlarini voyaga yetkazishning yangicha tizimini ishlab chiqish vazifalarini kun tartibiga qo'ydilar. Yurtboshimiz bu jarayonda tarixiy an'analar hamda xorijiy mamlakatlar tajribalari umumlashtirib, zamonaviy ilmiy asosda yurtimizda bolalar va o'smirlarning vatanparvarlik tashkilotlarini tuzish kabi tavsiyalarni berdi. Yoshlarning harbiy hayot, jismoniytarbiya bilan bog'liq tadbirlarda ishtirok etishida qog'ozbozlik, yuzakilik va sustkashlikka yo'l qo'yish katta xato ekanligi ta'kidlandi, shuning uchun talaba-yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning yangicha pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqish va vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha yangicha metodologiyani ishlab chiqish bugungi ilmiy tadqiqotlarning bosh maqsadiga aylanib ulgurdi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi ta'limi sohasida «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da belgilangan vazifalarning to'laqonli amalga oshirishga erishish ham yoshlarda vatanparvarlik sifatlarini va fidoyilik xususiyatini shakllantirishda muhim omil bo'ladi. Harbiy vatanparvarlik insondan sabrli, chidamli, qat'iyatli, matonatli, jasurlik va mardlik fazilatlariga ega bo'lishni shart qilib qo'yish orqali u mohiyatan insonning kundalik mayda tashvishlardan ulug'vorlikka olib chiqadi. Ya'ni inson harbiy vatanparvarlik orqali xudbinona vatanni sevishdan, vatan oldidagi axloqiy burchini anglashga o'tadi, ulg'ayadi. Talabalar uchun vatanparvarlik tarbiyasining muhimligi mamlakatimiz xavfsizligi, mudofaa quvvatini mustahkamlash, fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash zaruriyati bilan ham belgilanadi. Shu sababli talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ta'lim-tarbiya ishlari oldida turgan ulug'vor, mas'uliyatli vazifa bo'lib qolmoqda. Mustaqil davlatimizning bugungi bosh vazifalaridan biri –yurtim, elim deb kuyib, yonib yashaydigan vatanparvar komil insonni tarbiyalashdir. Pedagogik jarayonda talabalarni vatanparvarligi, vatanga muhabbat tuyg'usining chinakam e'tiqodga, chinakam aqidaga aylanishi uchun ularni tarixiy shaxslarni vatanparvarligi, vatan oldidagi qahramonligi o'rgatish, psixologik ta'sir ko'rsatib mardlik va jasorat sifatlarini rivojlantirish mumkin. Misol uchun, Shayx Najmiddin Kubro o'zi bosh bo'lib, xalqdan lashkar tuzib, Urganch fuqarosini dushmanga qarshi jangga ruhlantiradi. Beomon jangda Shayx bayroqni baland ko'targan holda to so'nggi nafasiga qadar uni qo'lda tutib boradi. Dushmanlar bayroqni olish uchun shayxning barmoqlarini bir-bir kesib olishga majbur bo'lgan ekanlar.






Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi insonda yuqori mudofaa ongini, Vatanning qurolli himoyasi uchun zarur bo'lgan g'oyaviy-siyosiy, ma'naviy-psixologik va axloqiy sifatlarni shakllantirish bo'yicha tizimli, maqsadga yo'nalgan ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat bo'ladi. Talabalarda vatanparvarlikni rivojlantirishda pedagogik-psixologik tayyorgarlikni ahamiyati juda yuqori hisoblanadi. Jamiyatda harbiy vatanparvarlik tarbiyasi nafaqat pedagogik-psixologik asoslarga, balki ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, axloqiy asoslarga bog'liq ekanligiga e'tibor berish zarur. Shubhasiz, yoshlar orasida harbiy-vatanparvarlik ishlarini kuchaytirish bo'yicha faoliyat bugungi kunda mahalliy, hududiy xususiyatlarni, shuningdek foydalaniladigan kuchlar va vositalarni avvalgidan ko'ra ko'proq kengaytirish maqsadga muvofiq. O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida barcha sohalar kabi ma'naviy sohada hamyangicha yondashuvlar va munosabatlar shakllanmoqda. Zero, bu sohada bajariladigan ishlar, tadqiq qilishga muhtoj muammolar ancha yillardan beri yig'ilib kelmoqda edi. Bunday dolzarb vazifalardan biri vatanparvarlik tarbiyasidir. Yoshlarni turli zararli diniy oqimlardan, «ommaviy madaniyat» niqobi ostida kirib kelayotgan buzg'unchi va yot g'oyalar ta'siridan himoya qilish, to'g'ri yo'ldan adashgan fuqarolarni sog'lom turmush tarziga qaytarish maqsadida olib borilayotgan ishlar biz kutgan natijani bermayapti. Shuning uchun ham yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda vatanparvarlik tarbiyasi muhim ekanligini, uni shakllantirish va takomillashtirish insonning tug'ilishidan to umrining oxirigacha davom etadigan jarayon ekanligini uqtirib o'rgatib borishimiz lozim. Yoshlarni Vatan va millat oldidagi burch va mas'uliyatini his qilishga o'rgatish, qonunlarga rioya etish fazilatlarini qaror toptirishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Anvar Khanimkulov Rahimkulovich. (2022). Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo 'nalishi talabalarini harbiy vatanparvarligi ruhida tarbiyalashni takomillashtirish. *Conference Zone*, 66–68. Retrieved from <http://www.conferencezone.org/index.php/cz/article/view/129>
2. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasining metodologik nazariy asoslari
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning xavfsizlik Kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisidagi nutqi // Xalq so'zi, 3-soni. - 2017 yil. 10 yanvar.





ISSN (E): 2181-4570

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23 fevral kuni tasdiqlangan "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash kontsepsiya" Vatanparvar gazetasining № 9 (2760) – soni, 2018 yil 2 mart.

5. Mirziyoev Sh.M. Jismoniy va ma'naviy etuk yoshlar – ezgu maqsadlarimizga etishda tayanchimiz va suyanchimizdir // www.prezident.uz.

